

---

## Information on the early arab campaigns to Fergana in arabic-language sources

Yuldashev Saidanvarbek Bakhromjon o'g'li  
[bahromzoda\\_turkzod@mail.ru](mailto:bahromzoda_turkzod@mail.ru)  
Associate Professor, PhD,  
Fergana State University

**Annotation** *Maqolada tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan holda Farg'ona vodiysiga arablarning dastlabki yurishlari to'g'risida fikr yuritiladi. Jumladan, Umayr ibn Usmon, ar-Rabi al-Horisiy, Salm ibn Ziyod, Solih ibn Muslim va Nasr ibn Sayyor tomonidan turli yillarda Farg'ona hamda Xo'jandga amalga oshirilgan harbiy yurishlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Ushbu yurishlardan ko'zlangan maqsadlar va ularni keltirib chiqargan sabablar ham maqoladan o'rin olgan.*

**Keywords** *Farg'ona, Yazdigard III, Feruz, Nars, Arab xalifaligi, Qutayba, Solih, Nasr ibn Sayyor, Turk xoqonligi, Koson, Xo'jand*

---

## Arab tilli manbalarda arablarning Farg'onaga dastlabki yurishlari haqidagi ma'lumotlar

Yuldashev Saidanvarbek Baxromjon o'g'li  
[bahromzoda\\_turkzod@mail.ru](mailto:bahromzoda_turkzod@mail.ru)  
Dotsent, PhD,  
Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya** *Maqolada tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan holda Farg'ona vodiysiga arablarning dastlabki yurishlari to'g'risida fikr yuritiladi. Jumladan, Umayr ibn Usmon, ar-Rabi al-Horisiy, Salm ibn Ziyod, Solih ibn Muslim va Nasr ibn Sayyor tomonidan turli yillarda Farg'ona hamda Xo'jandga amalga oshirilgan harbiy yurishlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Ushbu yurishlardan ko'zlangan maqsadlar va ularni keltirib chiqargan sabablar ham maqoladan o'rin olgan.*

**Kalit so'zlar** *Farg'ona, Yazdigard III, Feruz, Nars, Arab xalifaligi, Qutayba, Solih, Nasr ibn Sayyor, Turk xoqonligi, Koson, Xo'jand*

---

## Начальные походы арабов в Фергану в освещении арабоязычных источников

Юлдашев Саиданварбек Бахромжон угли  
[bahromzoda\\_turkzod@mail.ru](mailto:bahromzoda_turkzod@mail.ru)  
Доцент, PhD,  
Ферганский государственный университет

**Аннотация** *В статье на основе исторических источников и научной литературы рассматриваются первые походы арабов в Ферганскую долину. В частности, приводятся сведения о военных экспедициях, осуществлённых Умайром ибн Усманом, ар-Раби аль-Харисийем, Сальмом ибн Зиядом, Салихом ибн Муслимом и Насром ибн Сайяром в различные годы в Фергану и Худжанд. Также анализируются цели данных походов и причины, обусловившие их проведение.*

**Ключевые слова** *Фергана, Йездигерд III, Фируз, Нарс, Арабский халифат, Кутайба, Салих, Наср ибн Сайяр, Тюркский каганат, Косон, Худжанд*

### Kirish

Farg'ona vodiysiga arablarning kirib kelishi Qutayba ibn Muslim tomonidan 713 – 715 yillarda amalga oshirgan harbiy yurishlaridan bir necha o'n yil oldin sodir bo'lganligi to'g'risida tarixiy manbalarda ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Arablarning VII asr birinchi yarmida va undan keyingi davrlarda Farg'onaga amalga oshirgan bosqinlari bu yerda siyosiy inqiroz avjiga chiqqan vaqtga to'g'ri keladi.

Arablarning Farg'onaga amalga oshirgan dastlabki harbiy yurishlari to'g'risida B.Gafurov, A.N. Bernshtam, G. Goipov, Sh. Kamoliddin, A. Otaxojayev o'zlarining maqola va monografiyalarida bu mavzuga biroz to'xtalib o'tishgan. Ammo ularning tadqiqotlarida arablarning barcha bosqinlari xronologik ketma-ketlikda tahlil etilmagan.

Xorijiy tadqiqotlardan O.G. Bolshakov, Yulius Vellxauzen, Хью Kennedi, I.M. Filshinskiy, Zekiriyo Kitopchi singari olimlarning ishlarida ham arablarning Farg'onaga amalga oshirgan harbiy yurishlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shunga qaramay ular keltirgan ma'lumotlar asosan 715 va undan keyingi yillardagi harbiy harakatlar to'g'risidadir.

Yurtimiz va xorijdagi tadqiqotlarda arablarning VII asr ikkinchi yarmi va VIII asr boshlarida Farg'onaga amalga oshirgan yurishlari tadqiq etilmagan.

### Adabiyotlar tahlili

VII asr birinchi yarmida Farg'ona vodiysi bilan bog'liq muhim voqealardan biri – bu farg'onaliklarning arablar bilan to'qnashganligi edi. G'arbiy turk xoqoni Yopi To'lu (640–651) davrida farg'onaliklar Tajan daryosining yuqori oqimida arablar bilan to'qnashdilar.

Farg'onaliklarning arablar bilan dastlabki harbiy to'qnashuvi to'g'risida tarixchi Tabariy quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. 643 yilda Sosoniylar davlatining hukmdori Yazdigard III arablarga qarshi harbiy harakatlar olib borib, sug'd ixshidi va turk xoqoniga elchi yuboradi va

ulardan yordam so'raydi. Ammo tezda yordam kelavermaganligi bois, u Amudaryoning o'ng sohiliga chekinadi. Keyinchalik turk xoqoni Yazdigard III ga yordam berishga qaror qiladi. Bu haqda Tabariy quyidagilarni yozadi: "U (xoqon) turklar bilan keldi va Farg'ona hamda Sug'd aholisidan [askar] to'pladi. So'ngra ular bilan yurish qildi. Yazdigard ham Xurosonga qaytib kelib yurish qildi: u daryodan kechib o'tib, Balxda turdi. Xoqon ham u bilan birga suvdan kechdi. Kufaliklar Marvarrudda, al-Ahnafning huzuriga chekindilar. Kofirlar (ya'ni Yazdigard III va xoqon qo'shinlari) esa Balxdan yurish qilib, Marvarrudga al-Ahnaf ro'parasiga kelib to'xtadilar" (Tabariy, 1987). Demak, farg'onaliklar turk xoqoni qo'shini tarkibida ilk marotaba 643 yilda Marvarrud shahri yaqinida arab bosqinchilariga qarshi yurishda ishtirok etdilar.

Tabariy shu voqea bilan aloqador yana bir qiziq ma'lumotni keltiradi. Marvarrud voqeasidan so'ng turk xoqoni o'z yurtiga qaytmoqchi bo'ldi. Shunda, aftidan, o'z kuchiga ishonmagan Yazdigard ham u bilan birga ketish istagini bildirdi. Lekin uning ba'zi lashkarboshilari e'tiroz bildirdilar. Natijada o'rtada nizo chiqib, lashkarning bir qismi shohni tashlab ketadi. Bundan foydalanib, arablar Yazdigardga qarshi hujum qilib, uni yengadilar. "U qochdi, – deb yozadi Tabariy, – va daryodan (Amudaryodan) kechib o'tib panoh izlab, Farg'onaga, turklar huzuriga keldi. U o'sha tomonda [xalifa] Umar hukmronligining oxirigacha qoldi" (Tabariy, 1990). Demak, Eron shohi Yazdigard 643 – 644 yillarda, bir yilcha muddat davomida Farg'onada panoh topgan. Yazdigardning avlodlari yana uzoq yillar davomida Farg'ona bilan qizg'in o'zaro munosabatlarda bo'lishgan.

Manbalarda arablarga qarshi kurashish uchun otlangan farg'onaliklarga kim boshchilik qilganligi to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi. Qadimgi Fors davlatining Farg'ona bilan aloqalari Quva shahri bilan (Kamoliddin, 2009)

bog'liqligini hisobga oladigan bo'lsak, Yazdigard III Farg'onaning Quva shahriga kelgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shunga ko'ra, yuqoridagi to'qnashuvda farg'onaliklarga Farg'onaning markazi Quva bo'lgan janubiy hududini 640 – 660 yillarda (Otaxo'jayev, 2010) idora etgan Alsan boshchilik qilgan, deyishimiz mumkin.

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ishonadigan bo'lsak, arablarning vodiya dastlabki bosqini xalifa Usmon (644 – 656) davrida amalga oshirilgan. Xalifa buyrug'i bilan 649/650 yilda Xurosonga Umayr ibn Usmon ibn Sa'd yuboriladi. Umayr Amudaryodan kechib o'tib, Farg'onagacha keladi. Abu Ali Bal'amiyga ko'ra, bu yurish 31/651 – 52 yilda amalga oshirilgan edi. Bu arablarning daryo ortiga qilgan birinchi yurishi bo'lib, uning maqsadi arablardan Farg'onaga qochgan Sosoniylarning oxirgi shohi Yazdigard III ni qidirib topish bahonasida ushbu o'lkalar to'g'risida dastlabki razvedka ishlarini olib borishdir.

Tarixiy manbalarda arablar istilosi vaqtida forslar (al-a'jam) Farg'ona va turklar mamlakatida yashayotgani eslatib o'tiladi (Tabariy, 1987). Bu yerda VII asrdan boshlab quvg'in qilingan Yazdigardning avlodlari va aslzodalar yashaganligi qayd etiladi. Bu voqealar xalq og'zaki ijodida ham aks etgan. Rivoyatga ko'ra, arablar A'jam yerlarini fath etganlaridan keyin forslar ulardan qochib, Farg'onada qo'nim topganlar (Balozuriy, 2017). Al-Balozuriy(1863)ga ko'ra, Sosoniylarning oxirgi shohi Yazdigardning o'g'li Feruz arablardan qochib, turklarning qo'lga tushgan, keyin u turk qiziga uylanib, ular bilan qolgan. Manbalarda keltirilishicha, VIII asrning boshlarida Feruz Movarounnahrda Qutayba ibn Muslimga qarshi kurash olib borgan. Ammo Tabariy va Balozuriy keltirgan Feruz to'g'risidagi ma'lumotlari ham unchalik ishonchli emas. Chunki Feruz Farg'onada tug'ilgan taqdirda ham Qutayba Movarounnahr va Farg'onaga bostirib kirgan vaqtda 70 yoshdan o'tgan, ehtimol vafot etgan ham bo'lishi mumkin. Lekin shahzodaning 636 yilda Eronda tavallud

topgani aniq. G.Goipovning fikriga ko'ra, Yazdigardning arablardan Farg'onaga qochishi va Xurosonga qaytishi haqidagi ma'lumot aslida uning o'g'li Feruzga tegishli (Goibov, 1989). Lekin at-Tabariyga ko'ra, "turklarning hukmdori bilan o'zaro kelishuvga ko'ra, Yazdigard Farg'onada oilasi bilan qoldi". 31/651 – 52 yilda Marvga kelib, u as-Sin, Kabul va al-Xazar, shuningdek, Farg'ona hukmdorlariga yordam so'rab maktublar yozdi. Bizningcha, 22/642 – 43 yildagi Nahovand jangidagi mag'lubiyatdan keyin Feruz otasi Yazdigard bilan arablardan Farg'onaga qochdi, xalifa Usmon davrida esa u bilan birga Xurosonga qaytdi. Yazdigard Marvda qatl etilgandan keyin Feruz yana Farg'onaga qaytdi. Yana ma'lum bo'lishicha, Farg'onada yashab turgan davrida Feruz uzoq vaqt arablarga bo'ysinmaydi. Keyin esa mustaqilligini saqlab turgan Tabariston viloyatiga kelgan va u yerda Sosoniylarning hokimiyatini tiklashga harakat qilgan (Bartold, 1971). Xitoy manbalarida yozilishicha, 662 yilda xitoy imperatori Feruzni Eron shohi deb e'lon qilgan. Shundan keyin Feruz Toxaristonda arablarga qarshi kurash olib borgan. Xitoy manbalarida u to'g'risidagi so'nggi ma'lumot Shyanxing yillari (670 – 673)ga tegishli va shu yillardan keyin vafot etganligi yoziladi. Xitoy manbalarida Yazdigardning Ners (Ni-xuan-shi) ismli nabirasi haqida ham xabar keltirilgan. Tabariyga(1987) ko'ra u 58/677-78 yilda Xitoy imperatorining saroyida yashagan, keyin esa Toxaristonda arablarga qarshi qo'zg'olonga boshchilik qilgan. Xitoy manbalarida bu voqea Tyavlu darining 1-yilida (679 yilda) yuz berganligi ta'kidlanadi.

Arablarning vodiya navbatdagi yurishi Xuroson voliysi ar-Rabi al-Horisiy tomonidan amalga oshirilgan. Tabariyda keltirilishicha ar-Rabi al-Horisiy 671/672 yilda Amudaryodan kechib o'tgan. O'zi bilan Farruh ismli qulini va Sharifa ismli cho'risini ham olib o'tgan. U yerda ar-Rabi o'lja qo'lga kiritib, o'zi omon qolgan va Farruhni qullikdan ozod etgan. Manbada Xuroson voliysining daryodan kechib o'tgach aynan qaysi hududlarga bosqin amalga

oshirganligi aytilmaydi. Yazdigard Marvda o'ldirilganidan keyin sosoniylar xonodoni vakillarini qidirish ishlari to'xtatilmagan edi. Shuning uchun ar-Rabi al-Horisiy ushbu yurishi mobaynida sosoniylarning avlodlarini qidirib Farg'onaga kelgan bo'lishi mumkin. Ibrat ham ar-Rabi al-Horisiyni 666 yilda Farg'onaga yurish qilganligi to'g'risidagi rivoyatni keltiradi (Tabariy, 1987)

61/680-81 g. Xuroson voliysi etib tayinlangan Salm ibn Ziyod katta qo'shin bilan Marvga keldi va Xurosonda o'rnashgan arablarni ham qo'shinga jalb qilib, Movarounnahrda yurish boshladi. Salm ibn Ziyod arab lashkarboshilaridan birinchi bo'lib 61/680-81 yilda Amudaryodan xotini bilan kechib o'tdi va Samarqandga yurish qildi. Salm Xo'jandga ham yurish qildi, lekin uni fath eta olmadi. Askarlari orasida A'sho Hamdon ismli sarkarda bo'lib, u mag'lubiyati sabab she'r ham yozadi (Balozuriy, 2017).

Salm ibn Ziyodning Xo'jandga amalga oshirgan yurishi to'g'risida boshqa manbalarda ma'lumotlar saqlanmagan. Balazuriy(1919)da bu yurishdan maqsad nima ekanligi aytilmagan. Ammo manbalarda 60/679-80 yilda 'Ubaydulloh ibn Ziyod Salm ibn Ziyod bilan birga yana Movarounnahrda sug'diylar va turklarga yurish qildi. 'Ubaydulloh ibn Ziyod Samarqanddagi jangda bir ko'zidan ayrildi. Demak taxmin qilish mumkinki Salm ibn Ziyodning 680 yilda Xo'jandga amalga oshirilgan yurishi turklar va sug'diylar bilan yuz bergan to'qnashuv bilan bog'liq.

Xuroson voliysi Abdulloh ibn Xozim as-Sulamiy (64 – 72/683 – 692 yillarda hukm surgan) 70/689 – 90 yilda Farg'onada tamim qabilasiga mansub arablarni qirg'in qilgandan keyin bundan xalifaning g'azabi kelishiga aqli yetdi va o'zining taqdiriga xavf tug'ilganini sezdi. Marvga kelgandan keyin u o'g'li Musoga o'zining mol-mulkini topshirib, "Balx daryosidan kechib o't va Movarounnahrda biror podshohning saroyidan panoh top yoki u yerda biror mustahkam qal'a topib, o'sha yerda qol", – dedi, o'zi esa Nishopurga ketdi. Muso 220 ta askar bilan Marvdan yo'lga chiqdi va

Omurga keldi. Bu yerda unga bezori va daydilar qo'shilib, uning askarlarining soni 400 ga yetdi. Muso Omuldan Zammga yo'l oldi, yo'lda unga yana arablar kelib qo'shildi. Ular Zamm ahli bilan jang qilib, shaharni egalladilar va u yerda ko'p boyliklar qo'lga kiritdilar. Shundan keyin Muso qo'shin bilan daryodan kechib o'tdi (Balozuriy, 2017).

Yuqoridagi matnda Abdulloh ibn Xozim as-Sulamiy tomonidan Farg'onada tamim qabilasi vakillarini qirg'in qilinganligi to'g'risida hikoya qilinadi. Demak, bu arablarning vodiya 713-715 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi uchinchi yurishi hisoblanadi. Ammo Tabariy (1964)ning de Guye tomonidan tayyorlangan tanqidiy matnida va unga asoslanib ingliz tiliga tarjima qilingan nashrda Farg'ona so'zi o'rniga **فرتنا** – **Fartana** tarzida tarjima qilingan. Shuning uchun Abdulloh ibn Xozim as-Sulamiy boshchiligidagi arablarning Farg'onada bo'lganligi to'risidagi fikr yetarlicha asosga ega emas. Ehtimol, kotiblar tomonidan asar bir necha bor ko'chirilganda **فرغانه** o'rniga **فرتنا** tarzida yozilib, xatolikka yo'l qo'yildir. Ammo bu to'g'rida hali manbalar topilganicha yo'q. Yana shuni ta'kidlash kerakki Tabariy, Balozuriy va Bal'amiy o'z asarlarini arablarning Farg'onaga kirib kelganidan deyarli ikki asr o'tib yozishgan. Shuning uchun ular keltirgan ma'lumotlardan foydalanish davomida tanqidiy yondashish muhim hisoblanadi.

Arablarning Farg'onaga navbatdagi yurishi to'g'risida Balazuriy (1863) asaridan ma'lumot olishimiz mumkin. Unda qayd etilishicha, Qutayba noib bo'lgach, Movarounnahrda ukasi Solih boshchiligida qo'shin qoldiradi. Solih esa 86/705 yilda Koson va Urashtni egallaydi. Nasr ibn Sayyor ham uning qo'shinida u bilan birga edi. Nasr ibn Sayyor Farg'onadagi Bey'anhar qal'sini egallalaydi. Balozuriyning 1863 yilda nashr etilgan tanqidiy matnida Nasr ibn Sayyor egallagan qal'a Bey'anhar **بعضر** ko'rinishida 1, 2 va 4 harflarning nuqtalari tushurib yozilgan. Balozuriyning (1987) turkcha va ruscha tajimalarida **بعضر** – Bey'anhar hamda Bi'anxar ko'rinishida tadbil qilingan. Ammo bu joyning

qayerda joylashganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Bizningcha Bey'anhar Farg'onaning shimoliy chegaralaridagi qal'alardan biri bo'lsa kerak.

Endi Solihning Farg'onaga yurishiga qaytsak. Boshqa arab tilida yozilgan manbalarda Solih ibn Muslimning Farg'onaga qilgan yurishi haqida ma'lumot uchramaydi. Tabariy(1964) qayd etishicha, Solih as-Sag'oniyon va Voshjird o'rtasida joylashgan Bosoro nomli yerni fath etgan. Fikrimizcha, Solihning 705 yilda Farg'onaning ichkari tumanlariga bu qadar kirib borishi imkonsiz bo'lgan va shu sababli Balozuriyning yuqoridagi fikrlari bir oz jumboqlidir. Ehtimol, Balozuriy Solihning Farg'onaga yurishini yozishda o'zidan oldingi Madoiniyga tayangan bo'lishi mumkin. Ammo Madoiniy asarining bizning kunimizgacha yetib kelmaganligi va Balozuriy Farg'ona to'g'risida yozganda Madoiniyga xavolalar keltirmaganligi sababli bu fikr ham asossizdir.

Ibn A'sam al-Kufiy o'zining "Kitob al-futuh" nomli asarida Qutayba ibn Muslimning Farg'onaga yurishi to'g'risida hikoya qiladi. Unda keltirilishicha, arablar 715 yilda Boshak ismli Farg'ona hukmdori bilan jang qiladi. Boshakning Kazah deb atalgan qal'asi Qutayba tomonidan yetti oy qamal qilinadi. Qamal yakunida arablar Boshak bilan sulh tuzishadi.

Ularga ishongan Boshak qal'adan chiqqach, Qutayba buyrug'i bilan o'ldiriladi.

### **Natija**

715 yilga qadar amalga oshirilgan bir necha harbiy yurishlar natijasida arablar Farg'ona vodiysining geografik holati, shaharlari, suv manbalari to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Qutayba ibn Muslimning yurishlar davomida vodiya erkin harakat qilishi yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida qabul qilishimiz mumkin. Bu yurishlarning ba'zilarida arablar g'alaba qozongan bo'lishsa, boshqalarida farg'onaliklar va xo'jandliklar tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arablarning 715 yilgacha ham Farg'onaga birnecha marta harbiy yurishlar tashkil etishgan. Ushbu harakatlardan asosiy maqsad Farg'onani egallash bo'lmasdan, balki uning siyosiy-harbiy holati to'g'risida ma'lumot to'plash edi. Bu yurishlarning ba'zilar yozma manbalarda eslatib o'tilsa, boshqalari xalq orasida rivoyatlar ko'rinishida saqlanib qolgan.

Amalga oshirilgan harbiy yurishlarni tadqiq etish orqali vodiy tarixining ko'pgina o'rganilmagan jihatlari o'rganiladi. Tarixshunosligimizdagi bir qancha yangilish fikrlarga muayyan tuzatish kiritiladi.

### **References:**

1. Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari. (1964). *Annales* (M. J. de Goeje, Ed., Vol. 1). E. J. Brill.
2. Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari. (1964). *Annales* (M. J. de Goeje, Ed., Vol. 2). E. J. Brill.
3. Abu-l-'Abbos Ahmad Ibn Yahyo Al-Balozuriy. (2017). *Futuh al-buldon (Xurosonning fath etilishi)* (Sh. S. Kamoliddin, Trans., Ed., & Comment.). Toshkent.
4. Al-Balazuri, A. ibn Y. ibn J. (1987). *Zavoyevaniye Xorasana (izvlecheniye iz sochineniya "Futux al-Buldan")* (G. Goipov, Trans., Ed., & Comment.). Donish.
5. Al-Balazuri. (1863). *Liber expugnationis regionum* (M. J. de Goeje, Ed.). Lundguni Batavorum.
6. Bartold, V. V. (1971). *Istoriko-geograficheskiy obzor Irana* (Vol. 7). Nauka.
7. Bernshtam, A. N. (1951). *Drevnyaya Fergana (Nauchno-populyarnyy ocherk)*. Izdatelstvo AN UzSSR.

8. Bolshakov, O. G. (2010). *Istoriya Khalifata* (Vol. 4: Apogey i padeniye). Vostochnaya literatura RAN.
9. Chavannes, E. (1903). Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux. In *Sbornik trudov Orkhonskoy ekspeditsii* (Vol. 6). Saint Petersburg.
10. El-Belâzurî, A. b. Y. (2013). *Futuh-ul-Buldan* (M. Fayda, Trans.). Siyer Yayınları.
11. Filshtinskiy, I. M. (2005). *Khalifat pod vlastyu dinastii Omayyadov (661–750)*. Sovero-Print.
12. Filshtinskiy, I. M. (2006). *Istoriya arabov i khalifata (750–1517)*. Vostok–Zapad.
13. Gafurov, B. G. (1989a). *Tadjiki: Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya* (Kn. 1). Irfon.
14. Gafurov, B. G. (1989b). *Tadjiki: Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya* (Kn. 2). Irfon.
15. Goibov, G. (1989). *Ranniye pokhody arabov v Srednyuyu Aziyu (644–704 gg.)*. Donish.
16. Ibn Wadhîh qui dicitur al-Ja'qubi. (1883). *Historiae* (M. Th. Houtsma, Ed., Vol. 2). Lunduni Batavorum.
17. Ibrat, I. J. (1991). *Farg'ona tarixi* (H. Bobobekov & M. Hasaniy, Eds.). Kamalak.
18. *Istoriya at-Tabari*. (1987). (V. I. Belyayev, Trans.; O. G. Bolshakov & A. B. Khalidov, Eds.). Fan.
19. *Istoriya khalifov anonimnogo avtora*. (1967). (P. A. Gryaznevich & M. B. Piotrovskiy, Eds.). Nauka.
20. Kamoliddin, Sh. S. (2009). *Somoniylarning kelib chiqishi*. Toshkent.
21. Katouzian, H. (2007). *Iranian history and politics: The dialectic of state and society*. Routledge.
22. Kennedy, H. (2010). *Velikiye arabskiye zavoyevaniya* (G. Solovyeva, Trans.). AST.
23. Motahhar ben Tahir el-Maqdisi. (1919). *Le Livre de la Création et de l'Histoire* (M. Cl. Huart, Ed. & Trans., Vol. 6). Ernest Leroux.
24. Otaxo'jayev, A. (2010). *Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari*. Art-Flex.
25. Smirnova, O. I. (1970). *Ocherki iz istorii Sogda*. Nauka.
26. *The History of al-Tabari*. (1990). (R. Stephen Humphreys, Trans., Vol. 15). State University of New York Press.
27. *The History of al-Tabari*. (1990). (G. R. Hawting, Trans., Vol. 17). State University of New York Press.
28. *The History of al-Tabari*. (1990). (Martin Hinds, Trans., Vol. 23). State University of New York Press.
29. *The History of al-Tabari*. (1994). (G. Rex Smith, Trans., Vol. 14). State University of New York Press.
30. Vellxauzen, Yu. (2018). *Arabskiy khalifat. Zolotoy vek islama* (T. M. Shulikova, Trans.). Tsentrpoligraf.
31. Zekeriya Kitapçi. (2000). *Türkistan'in Araplar tarafından fethi*. Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı.
32. تاریخ بلعمی. (1353). *ترجمی تاریخ طبری جلد سوم*. کتابفروشی زوار تهران شاه آباد.
33. بیگی تاکنامه. (2013). *24 تاریخ «تسکی غه ربی یورت تاریخغا نائنت ماتبریالار*. شنجان خلاق نەشریاتی.
34. کتاب الفتوح لأحمد بن أعثم الكوفي. (1991). *دار الأضواء للطباعة والنشر والتوزيع*.